

ТОШКЕНТ МОЛИЯ ИНСТИТУТИ
ҲУЗУРИДАГИ ИЛМий ДАРАЖАЛАР БЕРУВЧИ
DSc.03/30.12.2019.I.17.01 РАҚАМЛИ ИЛМий КЕНГАШ

ТОШКЕНТ ДАВЛАТ ИҚТИСОДИЁТ УНИВЕРСИТЕТИ

Тўлаев Сафармурод Боймухаммад ўғли

КОРПОРАТИВ МИЖОЗЛАРГА КўРСАТИЛАДИГАН
ИННОВАЦИОН БАНК ХИЗМАТЛАРИНИ
ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

08.00.07 – Молия, пул муомаласи ва кредит

иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси

ҲИМОЯ ҲУЖЖАТЛАРИ

Тошкент – 2025 йил

**RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo'lyozma huquqida

UDK: 336.713:336.76:330.322(575.1)

TO'LAEV SAFARMUROD BOYMUHAMMAD O'G'LI

**KORPORATIV MIJOZLARGA KO'RSATILADIGAN INNOVATSION
BANK XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori

(Doctor of Philosophy) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar: DSc., prof. M.S.Rustamov

Toshkent-2025 y.

KIRISH.....	3
KORPORATIV MIJOZLARGA KO'RSATILADIGAN	
I BOB. INNOVATSION BANK XIZMATLARINING IQTISODIY	11
MOHIYATI HAMDA NAZARIY ASOSLARI.....	
1.1. Korporativ mijozlar tushunchasi, turlari va tasnifi hamda bank xizmatlari bo'yicha ilmiy-nazariy qarashlar.....	11
1.2. Tijorat banklari tomonidan korporativ mijozlarga ko'rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini shakllantirish yo'llari.....	22
1.3. Korporativ mijozlarga ko'rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini shakllantirishning xorijiy mamlakatlar tajribasi.....	35
Birinchi bob bo'yicha xulosa.....	47
BANKLARDA KORPORATIV MIJOZLARGA	
II BOB. KO'RSATILADIGAN INNOVATSION BANK XIZMATLARI	49
TAHLILI.....	
2.1. Tijorat banklarida korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish tartibi.....	49
2.2. O'zbekiston Respublikasi tijorat banklari faoliyati tahlili.....	65
2.3. Tijorat banklarda korporativ mijozlarga xizmat ko'rsatish natijalari tahlili.....	80
Ikkinchi bob bo'yicha xulosa.....	95
KORPORATIV MIJOZLARGA KO'RSATILADIGAN	
III BOB. INNOVATSION BANK XIZMATLARINI	97
TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI.....	
3.1. Korporativ mijozlarga ko'rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini shakllantirishdagi muammolar va ularning echimlari.....	97
3.2. Mamlakatimizda korporativ mijozlarga ko'rsatiladigan innovatsion bank xizmatlarini takomillashtirish.....	108
Uchinchi bob bo'yicha xulosa.....	119
XULOSA.....	121
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	125
ILOVALAR.....	131

KIRISH

Dissertasiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon amaliyotida banklarning korporativ mijozlarga ko'rsatayotgan innovatsion bank xizmatlarini rivojlantirishga e'tibor qaratilmoqda. Shuningdek, korporativ mijozlarga bank xizmatlari ko'rsatish tizimining rivojlanishining asosiy jihati iqtisodiyotni raqamlashtirishdir. Ushbu jarayonda banklar korporativ mijozlarga turli xil yangi bank mahsulotlari va xizmatlarini taqdim etadilar. Dunyoning turli hududlarida faoliyat olib borayotgan yetakchi tijorat banklaridan biri JPMorgan Chase & Co "35 trillion dollardan ortiq aktivlarga ega bo'lib, 2024-yilda butun dunyo bo'ylab iste'molchi va institutsional mijozlari uchun 2,8 trillion dollar miqdorida kredit ajratganligi katta natijadir. Bank har kuni 120 dan ortiq valyutada va 160 dan ortiq mamlakatlarda korporativ mijozlarning 10 trillion dollardan ortiq mablag'ni o'tkazib berib dunyo bo'ylab tovarlarni sotilishi va xizmatlarni o'z vaqtida ko'rsatilishiga hissa qo'shib kelmoqda"¹. Har qanday iqtisodiy sharoitda ham korporativ mijozlar uchun amalga oshiriladigan xizmatlar bankka barqaror va o'sib boruvchi daromadni ta'minlashi mumkinligi, bank tizimi va davlat uchun ushbu tarmoqni rivojlanishining muhimligini ko'rsatadi.

Jahon amaliyotida banklar va xalqaro tashkilotlar, soha yetakchi olimlari tomonidan ham, tijorat banklari korporativ mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarining rivojlanish evolyusiyasi, amaldagi holati, tashkil etishdagi muammolar, ularni bartaraf etish va bank xizmatlarining samaradorligini oshirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Ayniqsa xalqaro amaliyotdagi tadqiqotlarda korporativ mijozlarga taqdim etilayotgan bank mahsulot va xizmatlari turini ko'paytirish, sifatini oshirish, realizatsiyasini optimallashtirish, unga ta'sir etuvchi omillarni to'g'ri baholash va tijorat banklarining korporativ mijozlarga ko'rsatilayotgan mahsulot va xizmatlar bo'yicha rentabelligini oshirish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan, tijorat banklari o'zlarining ushbu sohani rivojlantirishdagi strategiya va maqsadlaridan kelib chiqqan holda, bank korporativ mijozlarga ko'rsatilayotgan xizmatlarini yetkazib berishni

¹ <https://www.jpmorganchase.com/ir/annual-report/2024/ar-ceo-letters>

optimallashtirish, innovatsion xizmatlar tizimini tashkil etish, xizmatlarni standartlashtirish, raqamli bank xizmatlari ko‘lamini kengaytirish kabi masalalar ilmiy tadqiqot obyekti sifatida qaralishi bugungi kunda ham dolzarb bo‘lib qolmoqda.

O‘zbekistonda bugungi kunga kelib, tijorat banklari tomonidan korporativ mijozlarga ko‘rsatilayotgan bank innovatsion mahsulot va xizmatlari tubdan isloh qilindi xususan oldingi yillarga nisbatan ushbu bank xizmatlari bozori rivojlandi, universal bank xizmatlarini taqdim etish borasidagi o‘zgarishlarni ko‘rishimiz mumkin. Ammo, shunga qaramasdan bank xizmatlarini takomillashtirish va ularni amalga oshirish amaliyotida ba’zi muammolar saqlanib qolmoqda. Bunday muammolar qatoriga: kredit olish uchun berilgan arizalarni ko‘rib chiqish va kreditlarni ajratishda tezkor qaror qabul qilishning cheklanganligi, korporativ mijozlar bilan hamkorlik munosabatlarini yo‘lga qo‘yishda zamonaviy yondashuvlar mavjud emasligi, to‘lov tizimlarining xavfsizlik, uzluksizlik va ishonchlilik darajasining rivojlangan davlatlarga nisbatan pastligi va boshqalarda ko‘rishimiz mumkin. Respublikamiz tijorat banklariga «Bank faoliyatining ilg‘or xalqaro tajribasini o‘rganish hamda bank xizmatlari va mahsulotlarining yangi turlarini joriy etish, naqd pulsiz to‘lovlarni amalga oshirishda innovatsion mahsulotlarni, shu jumladan bevosita muloqotsiz va mobil texnologiyalarni rivojlantirish hamda ilgari surish»² vazifasi belgilangan. Bu o‘z navbatida mavzuning bugungi kundagi dolzarb masalalaridan biri ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi, 2020-yil 5-oktyabrdagi PF-6079-sonli ““Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2020-yil 12-maydagi PF-5992-son “2020-2025-yillarga mo‘ljallangan O‘zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017 yil 12 sentabrdagi PQ-3270-son «Respublika bank

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 23 мартдаги ПҚ-3620 сонли «Банк хизматлари оммабоплигини ошириш бўйича қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида»ги қарори.